ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2025 / № 3. 1-3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 3. 1-3

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalar shakllanishida antropotsentrik omillarning o‘rni 7

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Aksiolingvistikada qadriyat tushunchasi va uning turlari 10

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Andijon dialektal zonasi haqida 16

HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXOVICH
Genderoleksemalarning nominativ farqlanishi 20

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH
Dunyo tilshunosligida o‘zlashma so‘zlarga munosabat masalasi 25

ДУСТМУРОДОВ МАЪРУФЖОН МАНСУР ЎҒЛИ
Уйғур хоқонлиги даври ёдномалари туркумидан:
тариат (ТЭРХ) битиги ҳақида баъзи мулоҳазалар 28

UBAYDULLAYEV ALISHER ABDUSALOMOVICH
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» qo‘lyozmasining lingvistik tahlili 33

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Badiiy matnning presuppozitiv tahlili 38

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod nasriy nutqida metaforaning statistik tahlili 42

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Lingvistik kodlar aralashuvi tushunchasi va uning
lakunarlik hodisasini bartaraf etishdagi imkoniyatlari 48

ESHNIYOZOVA GULHAYO HAMROQUL QIZI
Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida badiiy
san’atlarni qo‘llash mahorati 51

SULAYMONOV BOBIR
Izoh tipidagi o‘quv lug‘atlarda leksikografik
semantizatsiyaga qo‘yiladigan talablar 55

BOYSARIYEVA SAODAT
Morfem o‘quv lug‘atining amaliy jihatlari 58

DAVIDOV YUNUS JUMMAYEVICH
Badiiy asarlarda ko‘pma’nolilikning uslubiy xususiyati 61

ZARIPOVA MATLUBA QULFITDINOVNA
O‘zbek va rus tillarda tarjimaning lingvokulturologik
va peyorativlik muammolari 64

AZIZ AMINI
Frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning leksikografik
xususiyatlari (Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqi misolida) 66

МУНДАРИЖА

ALLAMURATOVA XOSIYAT
O‘zbek antroponimikasida apotropeik komponentlarning
sodda va qo‘shma ismlarda ifodalanishi 69

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Синонимические отношения в словах с
гендерными признаками узбекского языка 73

HATAMOV ZIYODIN MAMADULLAYEVICH
Badiiy uslubda modal so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari 76

ALIMOVA E’TIBOR KAROMAT QIZI
O‘zbek xalq ertaklarida mifonim va teonimik birliklar 81

MUXAMMADALIYEVA SHAXZODA MAXMUD QIZI
Maqollar orqali ramziy ma’noning ifodalanishi 89

ABRUYEVA ZAXRO SHOKIR QIZI
O‘zbek tili murojaat shakllari tizimida kognitiv metaforaning o‘rni 92

XUDAYBERGANOVA MUNIRA
«Muqaddimatu-l-adab» asari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar:
tilshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari 96

ABDUQAHHOROVA XOSIYAT ABDURASUL QIZI
Tarixga oid terminlarda o‘z va o‘zlashma qatlam 100

SHADMANOVA ALYONA SERGEYEVNA
Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi 104

QOSIMJONOVA FARANGIZ FARID QIZI
Iboralarning so‘z turkumlariga munosabati 108

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Эътибордан четда қолган нашр 111

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Психологик таҳлил ва бадиий драматизм
(Эркин Аъзамнинг «Таъзия» ва «Ступка» ҳикоялари мисолида) 117

АЛИМОВ ПАРДА, АВРИДДИНОВ ЖОБИР
Бадиий характер муаммоси 121

YULDOSHEV DILMUROD
Matyoqub Qo‘shjonov talqinida qodiriy fenomeni («O‘zbekning o‘zligi» asari misolida) 123

ДИЛФУЗА ПАРДАЕВА
Художественные интерпретации образа Амира Нимура и его
времени в русской и узбекской поэзии XX века 129

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Taxmislarning spetsifik belgilari 132

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

METAFORALAR SHAKLLANISHIDA ANTROPOTSENTRIK OMILLARNING O'RNI

Xudoyberganova Durdona,
filologiya fanlari doktori, professor

Metafora serqirra til hodisasi sifatida dunyo tilshunosligida turli yondashuvlar asosida o'rganilgani va bu borada muhim yutuqlar qo'lga kiritilgani ilm ahliga yaxshi ma'lum. Metaforashunoslik milliy tilshunosligimizda ham yuqori darajada taraqqiy etgani, qator olimlarimiz tomonidan baquvvat tadqiqotlar yaratilgani bizni quvontiradi. Erishilgan natijalardan tilshunoslarimiz yaxshi xabardor bo'lganlari sababli ularni takrorlamasdan, ushbu maqolamizni to'g'ridan to'g'ri unda ilgari surmoqchi bo'lgan maqsadimizni bayon qilishdan boshlashni rejalashtirdik.

Milliy tilshunosligimizda metafora bo'yicha taniqli tilshunos olima, professor Shohista Mahmaraimova boshlab bergan tadqiq usuli[1] davom ettirilishi va ushbu lisoniy birliklar shakllanishining antropotsentrik omillari yanada kengroq tahlil qilinishi lozim.

Ma'lumki, metafora birinchi navbatda kognitiv faoliyat mahsuli hisoblanadi. U eng avvalo dunyoga mantiqiy-aqliy yondashuv mahsuli hisoblanadi. Til egalari metaforik birliklar orqali mavjud tushunchalarni qayta konseptuallashtirish bilan cheklanib qolmay, yangi tushuncha va g'oyalarni ham shakllantiradilar. Bunda ular o'z bilim va tajribalariga asoslanadilar. Yangi metaforik birlik shakllanishi natijasida yangi konsept hosil qilinadi, bu esa olam unsurlarini kategoriyalashtirishga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Ushbu jarayonlarning barchasi til tizimi birliklari bilan bevosita aloqador tarzda kechadi. Bu esa metafora hodisasini inson kognitiv faoliyati, uning empirik bilimlarining faollashuvi, tafakkuri bilan uzviylikda o'rganishni taqozo etadi[2].

Metaforaning shakllanish jarayoni birinchi navbatda assotsiativ tafakkur bilan bog'liq. Bir-biridan mohiyatan uzoq bo'lgan ikki obyekt assotsiativ aloqa tufayli o'zaro bog'lanadi. Aslida, metafora ikki obyekt o'rtasidagi mushtarak belgini ilg'ay olish va ushbu asosda ularni assotsiativ tarzda aloqalantirish natijasida shakllanadi. Shuning uchun ham metaforalashtirish hodisasi assotsiativ tafakkur bilan zich bog'langan hodisa sifatida chuqur o'rganilishi lozim.

Har bir xalq tilida mavjud bo'lgan metafora o'sha xalq lingvomadaniy qarashining in'ikosi hisoblanadi. Metafora uchun tanlangan birlik lingvomadaniy hamjamiyat a'zolariga yaxshi tanish bo'lishi, ularning milliy-madaniy qarashlariga muvofiq bo'lishi lozim. Tildagi juda ko'p metaforalar etnik stereotiplar asosida shakllanadi. Metaforalar shakllanishida lingvomadaniy kontekst eng muhim omillardan biridir. Bu esa metaforalar shakllanishi jarayonini lingvomadaniy omillarni e'tiborga olmasdan turib o'rganib bo'lmasligini ko'rsatadi.

Inson metaforalardan dastlab onomasiologik maqsadlarda foydalangan bo'lsa, keyinchalik undan real voqelikni va o'z ichki olamini yanada aniq, estetik jihatdan betakror tarzda ifodalash maqsadida foydalana boshlagan. Metaforalar ayniqsa inson ruhiyatining ko'zga ko'rinmas sirli hududlarini tasvirlashning bebaho vositasidir. Metaforalar insonning kechinmalari, shaxsiy munosabati, olamni idrok etish tarzini musavvir kabi tiniq bo'yoqlarda tasvirlab ko'rsatadi. Shu sababli ham metafora hodisasi insonning emotsional xususiyatlari, obrazli tafakkuri bilan uzviylikda o'rganilishi maqsadaga muvofiq.

O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida yuqoridagi mulohazalar asosida «O'zbek tili metaforalarining antropotsentrik lug'ati» ni tuzish nihoyasiga yetkazilmoqda. Unda o'zbek tilidagi uzual metaforalar shakllanishining antropotsentrik jihatlari tavsiflangan. Quyida mana shu lug'at materiallari asosida metaforalar shakllanishi mexanizmiga doir mulohazalarni keltirib o'tamiz.

O'zbek tilida bir necha metaforik ma'nolarda qo'llanuvchi so'zlardan biri ***og'ir*** so'zi hisoblanadi. O'zbek lingvomadaniyatida odam uchun qiyinchilik tug'dirmaydigan, ruhiyatiga yomon ta'sir qilmaydigan voqea-hodisalar *yengil* tushunchasi bilan, aksincha,

[1] Махмараимова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи (номинатив аспект): Филол.фан.д-ри дисс. – Қарши, 2020.

[2] Панкратова С.А. Роль метафоры в постижении истинного и прекрасного: когнитивно-семантический аспект // Вестник Челябинского гос.ун-та, 2009. – №5 (143) – Филология. Искусствоведение. – Вып.29. – С.87-92.

mashaqqatli, azobli voqea-hodisalar esa *og‘ir* tushunchasi bilan aloqalantiriladi. O‘zbek tilida *og‘ir* so‘zi bilan bog‘liq tasavvurla*r ko‘ngliga og‘ir olmoq, og‘ir botmoq, og‘ir ko‘chmoq, og‘ir bo‘l, og‘irini engil qilmoq* iboralari*; Olis yo‘l otni sinar, Og‘ir kun – xotinni; Tosh tushgan erida og‘ir; Og‘ir toshni suv eltmas* maqollari mazmunida aks etgan. *Og‘ir* so‘zining metaforik ma’nolari yuzaga kelishi insonning og‘ir va yengil vaznli narsalarni ko‘tarishi, siljitishi, tashishi natijasida hosil bo‘lgan tajribalari bilan bog‘liq. Og‘ir yuk ko‘tarib borayotgan odam ma’lum muddat qiyin ahvolga tushadi, qadam tashlagan sari o‘sha yuk uning yelkasidan bosadi, jismini zo‘riqtirib, bor kuchini sarf qilishni taqozo etadi. Mana shu noxush holat haqidagi tasavvurlar metafora yaratuvchisining tasavvurida mashaqqatli, azobli voqea-hodisalarni boshidan kechirayotgan odamning holati, his-tuyg‘ulari bilan o‘zaro o‘xshatilgan hamda ayni xususiyatlar uchun mushtarak bo‘lgan xususiyatni ilg‘ash natijasida «azob beruvchi, alamli» ma’nosini ifodalovchi metafora shakllangan. Masalan: *Nizomjon og‘ir iztirobli o‘ylar bilan jimjit bog‘ ko‘chalardan o‘tib dala yo‘liga chiqdi*. S.Ahmad, Ufq*. Zulayho og‘ir xayollar iskanjasida dilbandlariga termulib , birdan qozonidagi sut esiga tushib o‘rnidan irg‘ib turdi va oshxonaga qarab chopdi.* N.Jaloliddin qizi*,* Umid bekati.

Mazkur metafora ma’nosidan og‘ir yuk odamni qanday qiynasa, og‘ir o‘y-xayollar ham uning ruhiyatini shunday qiyin holatga tushirishi anglashiladi. Umuman, *og‘ir* so‘zining metaforik ma’nolarining deyarli barchasi mana shu tarzdagi fikrlash mahsuli hisoblanadi*.* Mazkur so‘zning ko‘chma ma’nolari pragmastilistik maqsaddan ham ko‘ra insonning fikrlash tarziga xos bo‘lgan metaforaga asoslangan tafakkur hosilasi sifatida yuzaga kelgan. (*Og‘ir ish, og‘ir mehnat, og‘ir kun, og‘ir kasallik, og‘ir havo* birikmalariga e’tibor bering). *Og‘ir* so‘zining *sipo, vazmin* semalaridan iborat ma’nosi esa og‘ir narsani qo‘zg‘atish qiyinligi haqidagi assotsiatsiyalar bilan bog‘lanadi. Fizikaviy jism vaznining kattaligini bildiruvchi *og‘ir* so‘zi o‘z ko‘chma ma’nolari bilan inson ruhiyati, sajiyasi, jismoniy holati (bemorligi), mehnati, uni o‘rab olgan vaziyat kabi turli holat va jarayonlarning belgisini ifodalovchi birlikka aylangan va belgi-xususiyat lingvomadaniy kodlari guruhidan joy olgan.

To‘g‘ri so‘zi juda ko‘p xalqlarda metaforik ma’nolarda qo‘llanadi va ko‘p hollarda insonning bexato xatti-harakati (*to‘g‘ri yo‘l*), haqiqatga asoslangan fikr (*to‘g‘ri so‘z, to‘g‘ri gap*) ma’nolarini ifodalaydi. Bu kabi til universaliyasi o‘zbek lingvomadaniyatiga ham xosdir.Til sohiblarining turg‘unlashgan tasavvurlariga ko‘ra, to‘g‘rilik belgisi har doim ijobiy tushunchalar bilan aloqadordir. Ushbu tushuncha egrilik tushunchasiga qarama-qarshi qo‘yiladi va bu tushuncha bilan bog‘liq barcha amallar salbiy baholanadi. To‘g‘rilik belgisi ko‘pincha yo‘lga nisbatan belgilanadi: *to‘g‘ri yo‘l* kabi. Ma’lumki, biror manzilga to‘g‘ri yo‘ldan ham, egri yo‘ldan ham borish mumkin. To‘g‘ri yo‘l bilan manzilga tez va oson yetib olinadi, egri yo‘lni tanlagan odam esa bu yo‘lda mashaqqat chekishi, adashishi, ko‘zlangan manziliga yeta olmasligi mumkin. Bu tarzdagi mulohazalar o‘zbek lingvomadaniyatida to‘g‘rilik belgisining juda ko‘p ideal obyektlar belgisi uchun ijobiy xususiyat etaloni sifatida tanlanishiga sabab bo‘lgan: *to‘g‘ri gap, to‘g‘ri javob, to‘g‘ri yechim, to‘g‘ri hukm, to‘g‘ri fikr* kabi. «Yaxshi amallardan iborat; noto‘g‘ri emas» ma’noli *t o‘g‘ri yo‘l* metaforasi ham yuqoridagi kabi inson bilimi va tajribalariga asoslangan holda shakllangan. Ushbu metaforada *yo‘l* so‘zi ham ramziylik kasb etib, inson tomonidan olib borilayotgan faoliyat ma’nosida qo‘llangan: *Har kim o‘z elida davron suradir, Mardlar elin to‘g‘ri yo‘lga buradir. Bo‘lar elning farzandlari, botirlar, Oyoqlarin kesishsa ham yuradir*. U.Azim, Baxshiyona. *Mana shu vaziyatda eng to‘g‘ri yo‘l – shoh qo‘shinini* «*otang yaxshi, onang yaxshi*»*, deb silab-siypab, vataniga jo‘natib yuborish edi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

O‘zbek tilidagi yana bir metaforik leksema – «ma’yus, kayfiyatsiz» ma’nosini ifodalovchi ***siniq*** metaforasining shakllanishida assotsiativ tafakkur yetakchi omillardan biri bo‘lgan. *Siniq* metaforasi obyektiv voqelikdagi predmetning sinish natijasida o‘z yaxlitligini yo‘qotishi va buzilishi hamda majoziy ma’noda insonning ruhiy barqarorligi, funksionalligi yoki normal holatni yo‘qotish o‘rtasidagi bog‘liqlikka asoslanadi. *Siniq jilmaydi, siniq kayfiyat* birliklaridagi *siniq* so‘zi qalbi chinni piyola kabi sinib, chil-chil bo‘lgan inson ruhiyatiga ishora qiladi. Bunda metafora yaratuvchi shaxsning lisoniy ongida inson ruhiyati sinishi mumkin bo‘lgan moddiy obyekt, masalan, chinni piyola sifatida (tasavvufiy yo‘nalishda *ayoq* so‘zining qalb ramzi ekanligini eslang) tasavvur qilinib, uning xususiyati nomoddiy obyektga ko‘chirilgan: singan predmet mayda-mayda bo‘laklarga bo‘linib buzilib ketgani singari, siniq kayfiyatdagi odamning ham qalbi shikastlangan bo‘ladi, bunday holatdagi odam o‘zini to‘laqonli his qila olmaydi. *Siniq* metaforasining shakllanish jarayonida ko‘rish sezgisi orqali his qilingan muayyan xususiyat insonning ichki olami manzarasiga ko‘chirilgan bo‘lib, inson ruhiyatining yashirin «hududlari»ni obrazli tarzda aniqroq tasvirlash imkonini beradi. Misollarga e’tibor bering: *Bag‘rim yoniq, yuzim qora, ko‘nglim siniq, bo‘ynim bukuk. Sening ziyoratingga keldim, sultonim!* Fitrat, Yurt qayg‘usi. *Shu yoshimda yolg‘on gapirsam, menga yarashmas, – dedi u anchadan so‘ng siniq kayfiyatda.* A.Haydarov, Kunlardan bir kun va har kuni.

O‘zbek tilida *siniq* so‘zining *past, shikasta* semalaridan tashkil topgan yana bir hosila ma’nosi mavjud. Bunda eshitish sezgisi orqali his qilingan

muayyan xususiyatni nomlovchi lisoniy birlikdan ayni shu sezgi orqali his qilingan boshqa xususiyatni nomlash uchun foydalanilgan. *Siniq* metaforasi metafora yaratuvchi shaxsning singan narsa, masalan, piyolaning tiniq jarang chiqarmasligi bilan tushkun kayfiyatdagi odam ovozining past va titrab chiqishi o‘rtasidagi o‘xshashlikni ilg‘ay olishi va ayni mushtaraklikni assotsiativ tarzda aloqalantirishi natijasida shakllangan. Natijada inson ovoziga xos bo‘lgan belgini aniq va obrazli tarzda ifodalashga erishilgan: *Nafarmon qabo kiygan, yuziga oq harir parda tutgan Xonzoda begim siniq tovush bilan to‘xtab-to‘xtab so‘zlaydi...* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *U erdan ko‘zini uzmay siniq ovozda salom berganida Asadbek dodlab yuboray derdi.* T.Malik, Shaytanat.

O‘zbek tilidagi ***mo‘ralamoq*** metaforasida lisoniy hamjamiyat a’zolarining lingvomadaniy qarashlari, obrazli tafakkuri va lisoniy yaratuvchanligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Keksalik mo‘ralab eshik qoqmoqda, Bolalik qaytadan qaytarilmoqda. Bizdan erta kunga nelar qolmoqda. Umr o‘tmoqdadir, umr o‘tmoqda. T. Sulaymon, Umr o‘tmoqda. *Mo‘ralamoq* fe’lining mazkur, namoyon bo‘lmoq; boshlanmoq ma’nosi shakllanishida til sohibining assotsiativ tafakkuri va tasavvuri yetakchilik qilgan. Shoir tasavvurida keksalik davri bu – odam, shuning uchun u odamga xos harakat qilishi, jumladan, eshikdan *mo‘ralashi* ham mumkin. Bunda odam qiyofasidagi keksalik inson umriga kirib kelish maqsadida o‘zidan xabar bermoqda (*eshik qoqmoqda*). Mazkur metafora antropomorf metafora hisoblanadi, unda keksalik davri jonlantirilgan tarzda tasvirlangan. Ushbu kontekstdan adib *mo‘ralamoq* metaforasi orqali obrazlilik hosil qilishni maqsad qilgani anglashiladi.

Nigoh fe’llaridan biri bo‘lgan *mo‘ralamoq* so‘zi shunchaki qarash harakatini ifodalash bilan cheklanmaydi. Uning ma’noviy tarkibidan berkinib, sezdirmasdan qarash harakatlari ham anglashiladi. Mo‘ralash ayol kishi tomonidan amalga oshirilganida esa ushbu harakat ko‘pincha uyalish, iymanish harakatlari bilan uyg‘un tarzda amalga oshirilgani seziladi. Shu sababli ham *mo‘ralamoq* metaforasi badiiy matnlarda asosan ayol kishining chehrasiga qiyoslanuvchi *oy, olma, shaftoli* kabi referentlarni ifodalovchi so‘zlar bilan birga qo‘llanadi: *Derazadan mo‘ralaydi olma shoxi, Ufqda bulut – ertaga yomg‘ir bo‘ladi...* M.Yusuf, Matematika darsi. *Daraxtlar orasidan oy mo‘raladi.* R.Rahmonberdi qizi, Asr vaqti.

Urush mo‘ralardi qo‘lsiz yenglardan, Yupun xirmonlardan – bebaraka kuz. A.Muxtor, Ayajonimiz. *Mo‘ralamoq* fe’li vositasida hosil qilingan ushbu metafora o‘zining ta’sirchanligi va ohoriyligi bilan e’tiborni tortadi. *Mo‘ralamoq* fe’li ushbu kontekstda ham «ko‘zga tashlanmoq» ma’nosida qo‘llangan. Mazkur so‘zning *urush* so‘zi bilan birga qo‘llanishi ushbu lug‘aviy birlikning yuqori darajadagi assotsiativlik xususiyatini namoyon qilishiga sabab bo‘lgan. *Urushning mo‘ralashi* bu – urushdan majruh qaytgan va bir umrga nogiron bo‘lib qolgan millionlab jangchilarning, ularning qonli janglarda chekkan azoblarining, xotiralarida muhrlanib qolgan mudhish kunlarning, o‘smirlar va keksalar zimmasiga tushgan og‘ir yukning yodga tushishidir. Muallif *mo‘ralamoq* so‘zini metaforik ma’noda qo‘llab, u orqali mana shunday assotsiatsiyalarni yuzaga keltirishga erishgan.

O‘zbek tilidagi ***andavalamoq*** so‘zi til sohiblari lisoniy ongida loy va shu kabi narsalar bilan yuza qismni tekislash haqidagi tasavvurni qayta tiklaydi. Mazkur so‘zning metaforik ma’nolari ana shu tasavvur bilan aloqador holda shakllangan: o‘z gapini birovga qattiq botmaydigan tarzda to‘g‘rilab aytish harakati andava vositasida devor sirtini suvab, uning notekis joylarini silliqlab tekislash, natijada uni chiroyli qilib ko‘rsatish harakatiga o‘xshatilgan. Masalan: *Husan payqadi: uning holatini ozor chekishga yo‘ygan xotini, opalarga tegib ketadigan gap qilgan edi. – O‘z opajonlarim! Ot bilan tuya so‘ysa ham arziydi, – dedi gapni andavalab.* O.Muxtor, Muhabbat o‘limdan kuchli.

Berilgan misoldagi «birovning ko‘ngliga qattiq tegmaydigan holga keltirmoq, silliqlamoq (gap-so‘z, muomala haqida)» ma’nosini ifodalovchi *andavalamoq* metaforasining shakllanish jarayonida jismoniy harakat bilan nutqiy harakatning mushtarak xususiyatlarini asotsiativ tarzda aloqalantirish kuzatiladi. Ushbu metaforada o‘zbek tili sohiblarining o‘xshatishga asoslangan o‘ziga xos tafakkur tarzi namoyon bo‘lgan.

Andavalamoq so‘zining «bekitib, yopib yubormoq; xaspo‘shlamoq» ma’noli metaforik hosilasi ham mavjud: *– Fotihadan keyin apil-tapil to‘y qib (qilib) uzatganlariyam bejizga emas-da! – gapga qo‘shildi yangam ham bilgich kayvonilarday. – Qilar ishni qilib qo‘yib, endi o‘zlari andavalab o‘tirishipti*. H.Alp, Raqiblar. Ushbu metafora andavalash harakatiga xos tekislab yopish jarayonini ijtimoiy munosabatlarga ko‘chirish asosida shakllangan. *Qilar ishni qilib qo‘yib, endi o‘zlari andavalab o‘tirishipti* jumlasida yo‘l qo‘yilgan xatoni yashirish, xaspo‘slashga urinish harakatlariga ishora qilingan.

Tahlilga tortilgan lisoniy birliklar antropotsentrik omillar metaforalarning shakllanishida muhim o‘rin tutishidan dalolat beradi. Shu boisdan ham tilimizning boyligi hisoblangan metaforalarni o‘zbek tili sohiblarining kognitiv faoliyati, obrazli va assotsiativ tafakkuri, lingvomadaniy qarashlari bilan uzviylikda o‘rganish milliy tilshunosligimizning navbatdagi vazifalaridan biri bo‘lmog‘i maqsadga muvofiqdir.

Rezyume. Maqolada metaforalar shakllanishida insonning kognitiv faoliyati, bilim va tajribalari, assotsiativ va obrazli tafakkuri hamda etnik stereotiplarning roli xususidagi mulohazalar o‘zbek tilidagi uzual metaforalar tahlili misolida asoslangan.

Resume. The article examines the role of human cognitive activity, knowledge and experience, associative and figurative thinking, and ethnic stereotypes in the formation of metaphors, using the example of analyzing conventional metaphors in the Uzbek language.

Резюме. В статье рассматривается роль когнитивной деятельности человека, знаний и опыта, ассоциативного и образного мышления, этнических стереотипов в формировании метафор на примере анализа узуальных метафор в узбекском языке.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

AKSIOLINGVISTIKADA QADRIYAT TUSHUNCHASI VA UNING TURLARI

Лутфуллаева Дурдона,
филология фанлари доктори, профессор

Keyingi yillarda dunyo tilshunosligida til tadqiqida uning mavjudligi, takomili yoki inqiroziga ta’sir ko‘rsatuvchi barcha omillar qatorida inson omilini ham inobatga olishga, tilning insonga va insonning tilga ta’sirini o‘rganishga jiddiy e’tibor qaratila boshlandi. Natijada tilshunoslikning inson fenomeni bilan bog‘liq ilmiy muammolarni o‘rganuvchi turli sohalar bilan hamkorligiga asoslangan yangi yo‘nalishlari yuzaga keldi. Mana shunday yo‘nalishlardan biri aksiolingvistika bo‘lib, unda asosiy e’tibor tilshunoslik va aksiologiya sohalari kesishmasida kuzatiladigan ilmiy muammolarni tadqiq etishga qaratildi.

Aksiolingvistikada til, uning birliklarida aks etgan qadriyatlar tizimi tadqiq etiladi. Qadriyatlarni aks ettiruvchi til birliklari tilshunoslikda *aksiologema* (qadriyat birliklari) deb ataladi[1]. Bunday birliklarga kishilar tomonidan qadrlanadigan moddiy artefaktlar, urf-odat, an’analar, odob-axloq me’yorlari, ma’naviy-ma’rifiy, diniy, falsafiy g‘oyalar, tushunchalarni tilda aks ettiruvchi birliklar kiradi.

Ma’lumki, dunyo tilshunosligida XX asarning oxiriga kelib turli xalqlarning o‘ziga xos qadriyatlari tizimining tilda voqelanishi masalasi o‘rganila boshlandi[2].

Keyingi yillarda tilshunoslikda qadriyatlar madaniyatshunoslik aspektida ham o‘rganilmoqda.

[1] Кочеров С. Н. “Аксиологема” как проблема теории ценностей // Credo New. 2011. – №4. – С. 2; Самсонова А.А. Аксиологема как специфическое средство выражения ценностного содержания в жанре рецензии // Тамбов на карте генеральной: социально-экономический, социокультурный, образовательный, духовно-нравственный аспекты развития региона // Сборник материалов Всероссийской научной конференции. –Тамбов, 2016. – С. 149-151 / https://www.elibrary.ru/item.asp?id=32385059; Кретов А. А., Стародубцева Ю. А. Русские аксиологемы по данным МАСа-2 // Политическая лингвистика. 2016. – №2 (56). –С. 140-154// http://elar.uspu.ru/handle/ uspu/2904; Карелина В.А., Садовникова О.Н. Базовые аксиологемы китаеязычного рекламного дискурса // Актуальные проблемы гуманитарных наук: всероссийская научно-практическая конференция (Нижневартовск, 20 февраля 2021 года). – Нижневартовск: Нижневартовский государственный университет, 2021. – С. 514-521.

[2] Арутюнова Н. Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт. – М.: Наука, 1988. – 341 с.; Радбиль Т.Б. “Язык ценностей” в современной русской речи и пути его исчисления // Вестн. Нижегородского ун-та им. Н. И. Лобачевского. 2011. –№ 6(2). – С. 569–573; Павлов С.Г. Лингвоаксиологическая модель человека: научно-методический аспект // Вестник Мининского университета. 2013. – № 2. – С. 56–68; Карасик В. И. Лингвокультурные ценности в дискурсе // Иностранные языки в высшей школе. 2015. – № 1 (32). – С. 25-35; Шалина И. В., Пикулева Ю. Б. К проблеме описания методики лингвоаксиологического анализа (на материале диалогического общения носителей просторечной культуры) // Научный диалог. 2016. – № 11 (59). – С. 121-132.